

## YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

*Djuxonova Noxida Xayotjonovna*

*Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi (Phd)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuqori sinf qizlarining kelajakdagi hayotida o'ziga ishonch, baxtli oilaviy hayot, muloqotda emotsional samaradorlik, ijtimoiy ustanovkalar va etnik stereotiplar kabi psixologik mezonlarni aniqlash orqali «oilaga tayyorlik»ning vujudga kelishi qizlar yoshining faol davri sifatida asoslanganligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ruhiy-emotsional, odob-axloq, sotsial-psixologik, transformatsiya, ustanovka, kompleks.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oila institutini mustahkamlashda yoshlarni oilaga tayyorlash, oiladagi rollar taqsimoti, er-xotinning o'zaro bir-birini tushunishi, hissiy yaqinligi va shaxslararo munosabatlarning oilaviy munosabatlar barqarorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda oilaning barbod bo'lishi xolatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash ishiga alohida yondashuv asosida oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oila qadriyatlarini, oila qurish motivining etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etishga yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini keng qamrovda olib borishni davrning o'zi taqazo etmoqda. Bu borada, oiladagi shaxslararo munosabatlarning etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini ijtimoiy-psixologik ta'siri hamda yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorligini kompleks o'rganish orqali maxsus ilmiy tadqiq qilish dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni ma'naviy-psixologik jihatdan yuksaltirish, oilada qizlarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishga ulkan ahamiyat berilgan bo'lib, mazkur muammoning zarur xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»<sup>1</sup>, «...Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi»<sup>2</sup> tamoyiliga asoslanib, qizlarni oilaga tayyorlash ishlarini amalga oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishning imkoniyatlari yaratildi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son [qaroriga](#) 1-ilova.

<sup>2</sup> <https://daryo.uz> 26.12.2020

Har bir davlat oilani himoya qilish, ularning barqarorligini ta'minlash uchun yetarli va zarur sharoitlarni ta'minlashga harakat qiladi. Buning uchun esa qonunchilikda oilaga bag'ishlangan, uning zarurati va barqarorligini ta'minlaydigan hamda oiladagi umumbashariy qadriyatlarni saqlab qoladigan normalarni belgilash muhimdir.

Oila mustahkamligini ta'minlaydigan qoidalar dunyoning ko'plab ilg'or va rivojlangan davlatlari Konstitutsiyalarida belgilangan. Bugungi kunda Konstitutsiya va joriy qonunchilikda belgilangan oilaga bag'ishlangan normalarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularni takomillashtirish zarur bo'lgan ayrim masalalar ko'zga tashlanadi.

Nikoh va oilaning ruhiy-emotsional negizlari, qiz bolalarni nikoh va oilaga, ma'nan va ruhan tayyor ekanligi inchoqun, nikoh va oilaga qarashlar borasida qizlarni axloq-odobini meyorga chaqirish to'g'risidagi tushunchalar tarkibini takomillashtirish muhim vazifa sifatida qaraladi. Oilaning an'ana va qadriyatlari ahamiyatining zaiflashuvi, qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalari ularni ijobiy va salbiy tomonlari nikoh munosabatlarining transformatsiyasi yosh yigit-qizlarni oilaga tayyorlash ularni juda yosh oila qurishlar soni ko'payishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizligi kabi xolatlarining jamiyatga ta'sir etishi sababli ijtimoiy-psixologik mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda.

Turkiy va sharqiy elatlarda nikoh va oilaning sotsial-psixologik omili tariqasida yigit va qizlarni, ayniqsa, qizlarni nikoh va oilaviy hayotga ma'naviy-ruhiy tayyor ekanligi muhim vazifa sanaladi. Chunki Sharq an'anasiga ko'ra, ota-onasi oilasida tug'ilgan qiz bola, keyinchalik voyaga yetgach, oila qurishi, o'zi tug'ilgan uyidan boshqa xonadonga kelin maqomini olib "qadam" qo'yishi, u tarbiyalangan oilaning sha'niga baho berishga asos bo'lgan. Shuning uchun oila munosabatlarida qizlarning xulq-atvorini tartibga solish zarurati asosida etnik streotiplar va ijtimoiy ustanovkalar tizimini shakllantirishni jamiyatni o'zi ishlab chiqqandir. Ushbu sababdan, nikoh va oila borasida mavjud bo'layotgan ba'zi masalalarni oldini olishning sotsiologik, ma'naviy-ruhiy, tarbiyaviy, huquqiy, ruhiy, din va falsafiy tomondan insoniyat istiqbolini ko'rsatib beradigan zarur faktorlardan bu – yosh avlodlarni oila qurishga jiddiy munosabati va qarashini adekvat tushuntirishdir.

Oila kichik bir jamiyat bo'lib, uning tinchlik-xotirjamligi va baxt va farovonligini barpo etish oila va nikoh tuzilgan kishilarning dastlab, mas'uliyatni anglashi va unga amal qilishi orqali mustahkamlanadi. [Insoniyatning kelgusi istiqboli](#) farovonligi, ulkan muvaffaqiyatlarga erishishida, aynan, nikohdagi

juftliklarning ruhan va ma'naviy salomatligiga bog'liq bo'ladi. Bunda mazkur talablarga amal qilmoqlikka to'g'ri keladi:

- oila va nikoh qurayotganda o'zaro mos kishilardan iborat bo'lishi;
- kelin-kuyov, er-xotin o'rtasida e'tibor, qadrlash va ahillik;
- er kishi-qaynota, o'g'illarning oila qo'rg'oni, himoyachisilig hamda boshqaruvchilik rolini anglab yetishi va unga rioya etib borishi;
- kelinlar, qaynonaning oiladagi o'zaro iliq muhitni ta'minlashga javobgarligi;
- ota-ona farzandlariga nisbatan adolatli bo'lishlari;
- farzandlarning ota-onaga yaxshilik qilishlari.

Yuqori sinf o'quvchilarini yoshlarni hayotga tayyorlashda, ularda oila haqida, uning murakkab qirralari, oilaviy munosabatlarning milliy o'ziga xosligi, oila qurish motivlari, sevgi, sadoqat, kelin-kuyovning bir-birini tushunishining ahamiyati haqida tasavvurga ega ekanligi muhimdir. Ularda oilani yaratish, baxtli hayot kechirish, oilani davom ettirish ya'ni nasl qoldirish insoniyatning ezgu maqsadlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu shuni anglatadiki, dunyoga kelgan har bir qiz yoki yigitning o'z oilasida o'rni va kelajagi albatta etnik stereotiplar orqali rejalashtiriladi. Chunki har bir bola oilada tug'iladi va oilada o'sib ulg'ayadi.

Voyaga yetgan qiz esa bir oilada tug'iladi o'chib ulg'ayadai va boshqa oilaga uchirma bo'ladi, bu ham esa o'sha oilaning etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalari orqali turmushga chiqadi, bu esa u qizning boshqa bir oilaga borib baxtli hayot kechirishi u oilaning urf odatlari an'anasiga moslashishi uchun katta xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, balog'atga yetgan, aqlini tanigan va oila qurishga tayyor bo'lganda yoshlarni uylab qo'yish, bu kechiktirib bo'lmaydigan ishlar sirasiga bo'yiga yetgan qizni uzatish ham lozim ekanligi kiritilgan.

#### Адабиётлар

1. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
2. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
3. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).

4. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 20, 49-51.
5. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 1318-1323.
6. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
7. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUNIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
8. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
9. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
10. Эшмуратов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмуратов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси // *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
11. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
12. Эшмуратов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари // *Academic research in educational sciences*. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
13. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ // *Scienceweb academic papers collection*. – 2022.
14. Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогика*



*и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>

15.Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). МАКТАBLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>

16.Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. . (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>

